XALQ DEPUTATLARI NISHON TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2023 - yil 23 - oktabr VI-77-143-4-65-K/23 Nishon tuman hokimligi

Tumandagi aholi punktlarining tarkibiy qismlariga yangidan nom berish to’g’risida

O’zbekiston Respublikasining “Geografik ob’ektlarning nomlari to’g’risida”gi Qonuni *(O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2011-y., 41-son, 448-modda)* va O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2014-yil 4-martdagi 48-sonli *(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-y., 10-son, 107-modda)* qarori ijrosini ta’minlash maqsadida geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo’yicha viloyat komissiyasining xulosalari va tuman hokimining mahallalarni (ularning chegaralarini belgilagan va ularga nom bergan holda) bo‘lish to’g’risidagi taklifini ko’rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonunining *(O’zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-y.,9-son, 320-modda)* 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Nishon tuman Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I:

1.Tuman hokimining mahallalarni (ularning chegaralarini belgilagan va ularga nom bergan holda) bo‘lish to’g’risidagi taklifi ma’qullansin.

2.Tumandagi aholi punktlarining yangidan nomlanayotgan tarkibiy qismlari ro’yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Tuman statistika bo’limi (E.Bekmurodov), kadastr agentligi Nishon tuman bo`limi (Yo.Abdishukurov), Kadastrlar palatasi Nishon tuman filiali (A.Sayfullayev), tuman qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo’limi (Z.Aramov), tuman ichki ishlar bo’limi (Sh.Iskandarov), oila va xotin-qizlar bo’limi (Sh.Xujakulova) hamda boshqa tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda aholi punktlarining yangidan nomlanayotgan tarkibiy qismlari nomini davlat ro’yxatidan o’tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o’zgartirishlar kiritish bilan bog’liq barcha tadbirlarni amalga oshirsinlar.

4.Tuman ichki ishlar bo’limi (Sh.Iskandarov) aholi punktlarining yangidan nomlanayotgan tarkibiy qismlari aholisining fuqarolik pasportlariga, mazkur hudud aks ettirilgan yo’l belgilariga tegishli o’zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

5.Tumandagi fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarish organlariga aholi punktlarining tarkibiy qismlari yangidan nomlanayotganligi munosabati bilan aholi o’rtasida keng targ’ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish tavsiya etilsin.

6.Davlat kadastrlari palatasi Nishon tuman filiali (A.Sayfullayev) hamda tuman qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo’limi (Z.Aramov)larga tuman hududidagi yangidan nomlangan aholi punktlarining tarkibiy qismlari nomlari yozilgan ko’rsatkich va belgilari foydalangan peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o’rnatilishini ta’minlash topshirilsin.

7.Mazkur qaror “Nishon tongi” gazetasida e’lon qilinsin.

8.Mazkur qaror tuman hokimligining “nishonpress.uz” rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9.Mazkur qaror ijrosini taminlash hamda nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi S.Egamberdiyev va tuman hokimining o`rinbosari U.Nabiyev zimmalariga yuklatilsin.

10.Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi **M.K.Xayitmuradov**

Xalq deputatlari Nishon tuman
Kengashining
2023-yil 23-oktabrdagi
VI-77-143-4-65-K/23-son qaroriga
1-ilova

Tumandagi aholi punktlarining yangidan nomlanayotgan tarkibiy qismlari ro’yxati

T/r	Geografik ob’ektning turi	Geografik ob’ekt joylashgan Mahalla nomi	Amaldagi nomi	Yangidan berilayotgan nomi
1	Mahalla	“Oq oltin” MFY	Nomsiz	“Novur” MFY